

## OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING INSON PSIXIKASIGA TA'SIRI

**Shermatova Xilola Mirzayevna**

*FarDU o'qituvchisi*

**Po'latjonova O'g'iloy Adxamjon qizi**

*FarDU talabasi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada ommaviy axborot vositalarining inson psixikasiga ta'siri haqida fikr yuritiladi. Xususan, Internet kishilar hayotining ajralmas qismiga aylanib borayotganligi haqidagi statistik ma'lumotlar atroflicha ko'rib chiqilgan.*

**Kalit so'zlar:** *shaxs psixikasi, emotsiyonal, negative, veb-auditoriya, globallashuv.*

Bugungi kunda dunyo shiddat bilan o'zgarmoqda. Barcha sohalarda axborot olish va uni yetkazish, ta'sirchan jamoatchilik fikrini shakllantirish zaruratga aylangan. Ommaviy axborot vositalari insonlar psixikasiga o'z ta'sirini o'tkazib, ko'pchilikda asabbuzarliklar, stress hamda sovuqqonlik shakllanishiga sabab bo'lyapdi. Bunday murakkab sharoitda hayot yangidan yangi talab va vazifalarni oldimizga qo'yemoqda.

Etnopsixologik xususiyatlar xalq hayotining butun borlig'ida namoyon bo'libgina qolmasdan, shu millatga mansub bo'lgan shaxslarning kundalik muomalasida, xatti-harakatlarida ham o'z ifodasini topadi. Inson dunyoni bilishdagi turli-tuman tasavvur va tushunchalari ham shu jamiyat va etnik muhitning unga ko'rsatayotgan ta'siri ostida vujudga keladi. Bola ulg'ayib borar ekan, atrof-muhit, oila, jamiyat uning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Ta'kidlash joizki, hozirgi fan-texnika rivojlanib borayotgan zamonda bolaga kuchli psixologik ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri - ommaviy axborot vositalari hisoblanadi.

Hozirgi kunda ommaviy axborot vositalari, xususan televideniya orqali namoyish etilayotgan filmlar, reklamalr, hattoki, kichik yoshdagi bolalar uchun mo'ljallangan multfilmlarning ham shaxs psixikasiga, uning dunyoqarashi shakllanishiga kuchli ta'siri mavjud.

I.V.Gundarova tomonidan bola shaxsiga televizyon axborotlarni emotsiyonal ta'sirini o'rganish maqsadida olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, 46,3% dasturlar bolalarda pozitiv, 37,5% dasturlar esa negative reaksiyalar uyg'otar ekan. Bolalarda televizyon dasturlar ba'zan emotsiyonal-affektiv holatlarni yuzaga keltirish bilan birga, ularning ma'naviy dunyoqarashiga, qadryatlar yo'nalgaligiga, axloqiy va estetik madaniyatiga, ijtimoiy xulq-atvoriga, shaxslararo munosabatlarga, bir so'z bilan aytganda ta'lim-tarbiya jarayoniga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Buning natijasida bolada o'zini o'rabi turgan muhit, tevarak atrofdagi shaxslarga va ota-onasiga nisbatan ko'p hollarda salbiy munosabatlar shakllanadi.

Internet kishilar hayotining ajralmas qismiga aylanib borayotganligini quyidagi raqamlardan bilib olishimiz mumkin: 2000-yildan 2012-yilning oxiriga qadar dunyoda internet foydalanuvchilari soni 9,6 barobarga oshib, 2,4 mlrd kishiga yetdi, mobil aloqa abonentlari soni esa 13,4 barobarga oshib, 6,7 mlrd ni tashkil etdi. Internet foydalanuvchilarning 44,8% Osiyo, 21,6% Yevropa, 11,4% Shimoliy Amerika qit'alariga to'g'ri keladi. Juhon veb-auditoriyasining 45%ini 25 yoshgacha bo'lgan shaxslar tashkil etadi. Mazkur o'smirlarning 68% har kuni kimgadir SMS-xabar jo'natad, 51% i ijtimoiy tarmoqlarga kiradi, 30%i elektron pochtadan foydalanadi. Bular insonlar psixikasiga ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. Bu ta'sirni ijobiy tomonga yo'naltirish esa foydadan holi bo'lmaydi.

Internet hamda ommaviy axborot vositalari insonlar sog'ligi va psixikasiga o'ta kuchli ta'sir ko'rsatishini biz so'nggi yillardagi epidemiya misolida ham ko'rdik. Guvox bo'ldik.

Koronavirus so'nggi yillarda asosiy mavzu bo'ldi. Bu klassik shamollash yoki gripp belgilariga ega bo'lgan virus bo'lsa-da, bir necha ming hollarda u sabab bo'lgan o'lim global miqyosda vahima keltirib chiqardi. Juhon sog'liqni saqlash tashkiloti koronavirus ko'pchilik odamlarning sog'lig'iga bevosa xavf tug'dirmasligini va ehtiyyotkorlik va shaxsiy gigienani kuchaytirish virus tarqalishini kamaytirishi mumkinligini aniqladi. Biroq, vahima susaymaydi. Qo'rquvning bu tarqalishi fobiya va boshqa tashvish buzilishlarining rivojlanishi uchun yaxshi asosdir. Psixologlar ayni kunlarda berayotgan asosiy savol - bu koronavirusdan keyin odamlar ruhiyati bilan nima bo'ladi? Tez paydo bo'lgan irratsional qo'rquv kundalik ishda qiyinchiliklarni keltirib chiqardi, bu esa ommaviy axborot vositalarida mavjud epidemiyanı yoritish muammosidir. Biror kishi sog'lig'iga ma'lum bir xavf mavjudligini tushunganida, unga sog'lom bo'lish va sog'lig'iga xavf tug'dirmaslik muhimligi ayon bo'ladi. Biroq, ommaviy axborot vositalarida sog'liq bilan bog'liq muammolar ko'pincha bir tomonlama yoritiladi. Yangiliklarning aksariyati ko'pincha sog'liq uchun yangi xavflar haqida. Xavotirli va qo'rqoq odamlar, qoida tariqasida, bunday ma'lumotlarga ko'proq e'tibor berishadi, shuning uchun tashvish darajasi oshadi. Shu sababli, odamlar qo'rquvni yengishga yordam berish uchun turli favqulodda chorallarga murojaat qilishlari kerak. Koronavirusdan qo'rqish kuchayishi bilanoq, epidemiya haqidagi ishonchli ma'lumotlar filtrlanadi hamda jamiyatni tinchlantirishga va ruhiyat uchun salbiy oqibatlarni kamaytirishga intiladi.

Shunday ekan, ommaviy axborot vositalaridan oqilona foydalansakgina, turli psixik buzilishlar, uning oqibatida kelib chiqadigan turli stressli kasalliklarning oldini olgan bo'lamiz.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. A. Lutfullayev, E. Jabborov “Ommaviy axborot vositalarining inson va jamiyat hayotidagi ta’siri hamda axborot hurujlari” -2021.
2. Z.T. Nishanova, Sh.T. Alimbayeva “Ommaviy axborot vositalari xodimlarining shaxs milliy tarbiyasi oldidagi vazifalari” -2020.
3. Po’latjonova, O’.(2023). O’smirda diqqat barqarorligi, o’qitishning mazmundorligi mantiqiyligini oshiruvchi omil sifatida. Journal of Pedagogical and Psychological Studies, 1(4), 72-76.
4. Karimjanova, Yoqutxon Urinbaevna, Sharipova, Shukronahon Bakhtiyorjon qizi. (2022). Development of cognitive processes in adolescents. International Conference onStudies in Humanity, Education and Sciences, 27-30.
5. Mirzayevna, S. H., Muhammadaliyevna, A. S., & Qizi, O. M. O. (2022). Boshlang’ich Sinflarda Ta’lim Sifatini Oshirishda Aktdan Foydalanish. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, 1(13), 69-74.
6. Yuldasheva, G. I. (2022). Ta’lim samaradorligini oshirishda elektron darsliklardan foydalanish. Youth, Science, Education: Topical Issues, Achievements And Innovations,(5), 36-38.
7. Шерматова, Х. М., & Мукимова, З. З. (2021). Интеллектуальная культура-важный фактор образовательного процесса. Экономика и социум, (4-2 (83)), 723-726.
8. Shermatova, Н. М. (2023, January). Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt tizimlarini ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda qo ‘llanilishi. In International scientific and practical conference "the time of scientific progress" (Vol. 2, No. 5, pp. 107-113).
9. Shermatova, X.M., Maxammadjonov, J. (2023). Fan va ta’lim rivojlanishining zamонавиy tendensiyalari. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(4), 788-792.
10. Шерматова, Х. М. (2018). Параллельное микропрограммирование алгоритма вычисления стандартных функций.
11. Yuldasheva, G. I. (2021). The use of adaptive technologies in the educational process. Экономика и социум, (4-1 (83)), 466-468.
12. Shermatova, G. Y. H. (2022). Aniq fanlarni o’qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish. Scientific progress, 3(1), 372-376.
13. Yuldasheva, G., & Shermatova, H. (2022). Ta’limda innovatsion texnologiyalarning qo’llanilish istiqbollari. Science and innovation, 1(B8), 5-9.
14. Dehqanova, Zilola Mirzayevna. Bulutli texnologiyalarni rivojlantirishning asosiy yo’nalishlari. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(4), 804-812.

15. Тешабаева, О. Н., & Шерматова, Х. М. (2022). Современные информационные услуги в обеспечение конкурентоспособности коммерческих банков. *Scientific progress*, 3(1), 44-51.
16. Shermatova, Z.I.L.O.L.A., & Shermatova, H.I.L.O.L.A. (2022). The role of electronic educational manuals in the field of ICT. *Интернаука*, 4(1), 46-47.
17. Mirzayevna, S. X., Nabijon qizi, V. X., & Maribjon qizi, M. M. (2023). Musiqa Ta`Limini Avtomatlashtirish-Kompyuterlashtirish Asoslari. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 2(6), 102–105.
18. Mirzayevna, S. K. ., kizi, A. B. D. ., & kizi, I. S. Y. . (2023). The Role of Computer Simulation of the Process of Musical Creativity. *International journal of language learning and applied linguistics*, 2(6), 9–12.
19. Mirzayevna, S. K., Olimjon kizi, Y. D., & Azimjon kizi, K. Z. (2023). Music-Computer Technologies in the Formation of a Complex Model of the Semantic Space of Music. *International journal of language learning and applied linguistics*, 2(6), 42–44.
20. Komilova Z. Kh., & Nazirjonova, F. S. (2021). The role of new information technologyies in education. *Экономика и социум*, (4-1 (83)), 167-170.
21. Mamirovich, I. S. (2022). Finlyandiya Va O'zbekistonda Ta'lif Tizimini Sifatini Solishtirma Taxlili. *Miasto Przyszłości*, 29, 347-350.
22. Yoldasheva, G. I., & Yuldasheva, M. M. (2021). Factors of informatization of the process of primary education. *Экономика и социум*, (12-1 (91)), 689-692.
23. Алдашев, И. (2020). Современные информационные технологии в образовании-это новые возможности. *Экономика и социум*, (6 (73)), 341-344.
24. Mirzaakbarov, D. D. (2021). Directions for the introduction of new information technologies in education. *Экономика и социум*, (4-1 (83)), 211-214.
25. Sidikjonovna, I.D., & O'rinoiboyevich, T.F. (2022). Axborot Texnologiyalarini O'qitish Tizimiga Integratsiyalash. *Miasto Przyszłości*, 29, 283-285.
26. Askarova, S. M. (2022). Kompyuter va internetga qaramlikning yosh avlodga ta'siri va undan to'g'ri foydalanish omillari. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 10(11), 72-77.